

XIVA XONLIGIDA HUNARMANDCHILIK RIVOJI (XVI-XX ASRLARDA)

Matrasulov Lochinbek Shixnazarovich

*“Ichan-Qal’a” davlat muzey-qo’riqxonasi ilmiy ishlar bo’yicha direktor
o’rinbosari.*

Boltayev Izzatbek Xurmatbek o’g’li

“Ichan-Qal’a” davlat muzey-qo’riqxonasi bosh mutaxasisi.

Annotatsiya: *Ushbu maqola Xiva xonligining XVI – XX asrlarda hunarmandchilikning rivoji va bu davrdai Xiva hunarmandchilik turlari haqida qiziqarli va foydali ma’lumotlar berib o’tilgan.*

Kalit so’zlar: *to’qimachilik, Mo’ra, taqachilar, qulfgarlar, pichoqchilar, o’roqchilar, ignachilar, mixgarlar.*

Аннотация: *В данной статье представлены интересные и полезные сведения о развитии ремесел Хивинского ханства в XVI – XX веках и видах хивинских ремесел этого периода.*

Ключевые слова: *текстильщики, дымоходы, сапожники, слесари, ножеделки, жнецы, рукодельницы, гвоздезабивщики.*


Abstract: *This article provides interesting and useful information about the development of handicrafts of the Khiva Khanate in the 16th - 20th centuries and the types of Khiva handicrafts of this period.*

Keywords: *textile, Chimney, shoemakers, locksmiths, knifemakers, reapers, needlemakers, nailers.*

Xorazm O’rta Osiyoning shaharsozlik madaniyati keng tarqalgan, turli hunarmandchilik sohalari rivoj topgan hudud sifatida ma’lum va mashhur edi. Bu o’rinda arab sayyohi va olim Muqaddasiyning (taxminan 947-1000) quyidagi ma’lumoti diqqatga sazovordir. U “Xiva chuo’l chekkasida joylashgan azim bir shahardir u yerda uzum, ko’plab mayiz, sabzovot, kunjut, yo’l yo’l matodan tikilgan kiyimlar, gilamlar, qulflar, rang-barang kiyimlar, faqat kuchli odamlar foydalanishi mumkin bo’lgan o’q-yoylar, maxsus pishloq, suzma, baliq yetishtiriladi. U yerda kichik kemalar quriladi”, -deb qayd etgan edi.

Darxaqiqat, Xiva o’z taraqqiyotining barcha bosqichlarida Xorazmning yirik hunarmandchilik markazlaridan biri vazifasini o’tagan va o’zining bu funksiyasini XVI—XX asrning 20-yillarida ham davom ettirdi. Shahar hunarmandlari o’z mehnatlari bilan mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga katta hissa qo’shganlar. Ular yaratgan mahsulotlar nafaqat biror buyum, balki betakror san’at





asarlari darajasida ishlangan. Savdogar Fedor Skibin (1697) “Qurilishi jihatidan bir xil bo’lsada, Xiva shahri Buxorodan kichikroqdir. Xivaga qaram bo’lgan boshqa shaharlar ko’pdir. Axolisi jangari emas, hunarmandlardir”, - deya qayd etgan.


Shaharda to’qimachilik, kiyim-bosh, uy-ro’zg’or buyumlari, oziq- ovqatlarni ishlab chiqarishga ixtisoslashgan hunar turlari tadqiq etilgan davr mobaynida hunarmandchilikning asosiy sohalari hisoblangan. Shahar hunarmanchiligida boshqa Urta Osiyo shaharlaridagi kabi to’qimachilik alohida o’rin tutgan. Bu soha rivoji paxtani tozalash, ip yigirish va ipakni qayta ishlash bilan chambarchas bog’lanib ketgan edi.

Shahar to’qimachilari tomonidan paxta tolasi, jun, ipak, kandir va kanopdan turli to’qimachilik mahsulotlari to’qilar edi. 1669-yil Xivada bo’lgan rus savdogari I.M. Fedotov bu yerda “oddiy ipak, bo’z va zandanachi matolar tayyorlanadi”, - deb yozib qoldirgan edi. Shaharda an’anaviy matolardan olacha, turma (ipak), bez (bo’z)lar ishlab, ularga jumladan, olacha yoki turmaga biroz qattqlik berish, yaltiratish uchun mo’ra (qolip) toshlardan foydalanilgan. Mo’ra shishadan ishlangan bo’lib, uni qo’l dazmoli desa ham bo’lardi.

Hunarmandlar ishlab chiqarilgan ip matolar orasida bo’z (bez) alohida o’rin tutgan. Xivada uy sharoitida ipdan to’qilgan, bo’yalmagan mato bo’z deb atalgan va u XVI-XIX asrlarda ham hunarmandlar tomonidan keng ishlab chiqarilgan. XIX asrda Xivada bo’lgan sayyohlardan biri “Xivaliklar o’z uylarida bo’yalmagan bo’z nomi bilan mashhur mato to’qiydilar, bo’yalgani ko’k rangda. Bu matolardan Xivaliklar o’zlarining hamma kiyim-kechaklarini tayyorlaydilar”,-deya qayd etan edi. Shaharda rivoj topgan hunar turlaridan biri chit ishlab chiqarish edi. Matoga gujum, tut, o’rik, olmurut (nok) daraxtlaridan yasalgan mahsus qoliplar yordamida gul bosish hunari bilan shug’ullanuvchi chitgarlar tabiiy bo’yoqlar yordamida ajoyib naqshlarga ega nafis gullar, yaproq, g’unchalarga boy shaklli matolar yaratib, xalqning yuqori darajada badiiy hunarmandchilik madaniyatiga ega ekanligini namoyish etganlar.

Shaharda ipak matolar ham keng ishlab chiqarilgan. Bunda asosiy hom- ashyo vazifasini xonlikning janubiy hududlarida yashovchi aholi tomonidan yetishtirilgan ipak o’tagan. XVII-XVIII asrlarda ipak Buxoro xonligiga qaraganda Xiva xonligida ko’proq ishlab chiqarilib, Xivadan Buxoroga olib ketilgan. “Xiva ipagi Eronning G’ilon va Mozandaron ipagidan afzal bo’lib, Qo’qonnikidan farq qilardi. Lekin Xivada ipak kam ishlab chiqariladi” - deya qayd etgan edi A.Vamberi. XIX asr urtalariga oid bu ma’lumot ushbu davrga kelib oldingi asrlarga qaraganda Xivada ipak yetishtirish sur’atlari pasayganligini ko’rsatadi.





Hunarmandlar tomonidan ipakdan to'qilgan ro'mol va turma belboglariga tashqi bozorda ham talab katta bo'lgan. Chahorqat yoki chorqot (ipak rumol) deb atalgan rumol Xorazm, ayniqsa, Xiva ayollariing sevimli ro'mollari bo'lgan.

Shaharda rivojlangan hunar turlaridan biri bo'yoqchilik edi. Matolarni bo'yash bilan hunarmand-chitgarlar shugullanganlar va ular o'z faoliyatida turli o'simliklardan olinadigan bo'yoqlardan foydalanganlar. Hususan ular ro'yon o'simligi ildizidan ko'k va qizil bo'yoq olganlar. Bo'yoqchilar, shuningdek, yer yong'oq po'chogini qaynatib bo'zni sariq rangga bo'yar edilar.

Hunarmandchilik turlari ichida metallga ishlov berish alohida o'rin tutgan. Metall rudalar xonlikda kam bo'lib, qo'rg'oshin, mis, temir va cho'yanni xivaliklar Rossiyadan olganlar. Oltin va kumush - Rossiya, Eron, Qo'qon va Buxorodan keltirilgan. Metallga ishlov berishning muhim sohasi temirchilik edi. Xiva shahri hunarmandlari orasida temirchilar ko'pchilikni tashkil etardi. Ular aholini ketmon, o'roq, belkurak, bo'yunturuq, arra, bolta, va boshqa ish qurollari bilan ta'minlar edilar. Shaharda taqachilar, qulfgarlar, pichoqchilar, o'roqchilar, ignachilar, mixgarlar, aholiga o'z maxsulotlarini yetkazib berardilar.

Temirchilar mahsuloti xilma-xil va xaridorgir bo'lib, unga nafaqat oddiy fuqarolar orasida, balki saroyda ham extiyoj katta edi. Buni XIX asrning 60-70 yillariga oid saroy uchun sarflangan harajatlar ro'yhati ham tasdiqdaydi. Ular orasida "Usta Qurbonga temir qoshiq va oybolta, cho'kish va belkurakcha otashgir uchun 2 tillo berildi", "Sayfalig'a 4 temir qoziq olib berildi" " To'ramizning ikki pichoq qini, ikki qamchi mixi, miltigi - bir tillo" "Arkka bir sim elakni 2 tilloga olib berildi". Qayiqnlarni tuzatganda 10 tangaga qipchagul mix olindi kabi ma'lumotlar uchraydi.

Xiva shahrida temirchilikning juda taraqqiy etganligi aholi katta qismining bu hunar turiga ixtisoslashuvida o'z aksini topgan. Shaharda ularning alohida mahallalari mavjud bo'lgan. Ular jumlasiga poytaxtdagi "Pichoqchi", "Temirchi" mahallalarini kiritish mumkin.

Temirchilar mehnat kurollari bilan bir qatorda tabiblar uchun nozik asboblar ham yasaganlar. Buni "Ichan-Qal'a" davlat muzey-qo'riqxonasi xazinasida saqlanayotgan XIX asrga oid temirdan ishlangan tish oladigan asbob yaqqol tasdiqdaydi.

Xorazmda, ayniqsa, Xiva shahrida rivoj topgan hunarlardan biri mis o'ymakorligi, ya'ni, kandakorlikdir. Kandakorlar oltin, kumush, mis, jez va boshqa metallardan har - xil buyumlar yasab unga naqshlar o'yishgan, qadama naqshlar bilan ziynatlaganlar. Usta hunarmandlar tomonidan tayyorlangan bunday maxsulotlarga ichki va tashqi bozorda talab katta bo'lgan. Ularda yasalgan 200 ga



yaqin buyumlar hozirda Xivadagi "Ichan-Qal'a" davlat muzey-qo'riqxonasi fondida saqlanib kelmoqda.

XVIII-XIX asrlarda Xiva Markaziy Osiyoda kandakorlikning yetakchi markazlaridan biriga aylangan edi. 1864-1865-yil shaharda uyushmalarga birlashgan 38 misgar ishlagan. Ular tomonidan arabiy yozuv bilan bezab, Qur'ondan oyatlar keltirilgan mis, qisman kumush va birinjdin jomlar, qum'on (qumg'on) tung, tuncha, selobcha (dastsho'y), faqat Xorazmda tayyorlanadigan chilim, nos shishalar, qumg'onga o'xshaydigan choy idish, patnis, mis qozon, choynak va boshqa buyumlar ishlangan. XIX asrga oid Xiva Davlat hujjatlarida Otajon to'ra uchun harid qilingan "bir birinj tuncha", " bir tung, bir birinj qumg'on", "Bobo farrosh uchun "bir qumg'on", 10 tillaga olingan "7 dona birinj xun (patnis)" , 100 manatga olingan "2 dona kumush katta xun" kabi ma'lumotlar qayd etilganligi bu o'rinda diqqatga sazovordir.

Moskvadagi Qurol-aslaha muzeyida 1816-yil usta Yusuf Muhammad tomonidan yasalgan Muhammad Rahimxon I ning yog'och taxti saqlanadi. Uning ustki qismi kumush va mis bilan qoplangan bo'lib qoplamalarga o'yma naqsh bilan daraxt barglari va gul solingan. "Taxtning hamma joyi O'rta Osiyodagi gul va o'simliklarni o'zida namoyon etuvchi juda chiroyli naqshlar bilan bezatilgan. Bu taxt Xiva ustalarining maxorat cho'qqisi, ya'ni metallga gul solish san'atining betakror maxsulidir", - deb qayd etgan edi rus tadqiqotchisi V.V. Stasov.

Xivada muhr tayyorlash hunari ham rivoj topgan bo'lib, muhrlar mis, oltin, kumush va boshqa metallardan ishlangan. Bu o'rinda XVII asr muallifi Abulg'ozixonning quyidagi ma'lumoti diqqatga sazovordir. Uning yozishicha, "Avaneshxonning o'g'li Dinmuhammad Sulton bozordin bir muhrkanni kelturub otasining otina bir muhr qazdurdi". XIX asr Xiva davlat hujjatlarida xonning "ulug' muhrlari bilan kichik muhrlariga 116 misqol oltin berilgani haqidagi ma'lumotlar ham bu hunar turining ushbu davrda shahar hunarmandchiligida muhim o'rin tutganligini ko'rsatadi. Amaldorlar va ruhoniylar vakillari ham uz muhrlariga ega bo'lib, ular har-xil shaklda tayyorlangan. Muhr sohibining ismi, lavozimi, muhr tuzatilgan sana va ayrimlariga kur'on oyatlari yozilgan. Har bir hukmdorning o'z muhr tuzatuvchi ustasi-muhrkoni bo'lgan. Xiva xonligida mashxur muhrkonlardan Xudaybergan Muhrkon, Ismoil Muhammad Panoh o'g'li, Komil Devoniylarning ismlari ma'lum.

Metallga ishlov berishning muxim sohalaridan biri zargarlik edi. Xiva zargarlari oltin, kumush buyumlarga nafis toshlar bilan sayqal berib, Xorazmga xos qimmatbaxo buyumlarni yaratganlar. XVIII asrning 60 - yillarida Xivada o'n ikki nafar zargar bo'lgan bo'lsa, XIX asr boshlarida ularning soni oltmish nafarga yetgan. Ularning ayrimlari iqtisodiy jihatdan kuchayib ketganlar. Hatto ulardan biri



Qilichboy-zargar mablag'iga qurilgan va shu nom bilan atalgan 1850-1860-yil Xivada qurilgan masjid bo'lgan.

XVI-XX asrning 20-yillarida an'anaviy Xiva hunarmandchiligida ayrim uzgarishlar yuz berdi. Mahsulotiga talab so'nib borgan hunar turlari inkirozga uchradi. Davr talabi bilan XIX asr boshlarida to'p quyish, o'q otar qurollar ishlab chiqarish Xiva hunarmandchiligiga kirib keldi. Xivada Rossiya imperiyasining protektorati o'rnatilganidan so'ng shahar hunarmandchiligi bir qator o'zgarishlarga yuz tutdi. Bu yerga yangi hunarlar tunukasozlik, uylarga pol qoqish, ayrim oziq-ovqat turlarini ishlab chiqarish kirib keldi. Shu bilan birga Rossiyadan tayyor fabrika maxsulotlarining keltirilishi mahalliy hunarmandchilikning ayrim sohalari rivojiga salbiy ta'sir kursatdi. Biroq bu davrda ham aholi extiyojlarini qondirishda an'anaviy hunarmandchilik asosiy o'rinni egallab qoldi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ахмедов Б.А. Тарихдан сабоқлар.
2. Материалы по истории Узбекистана, Таджикистана и Туркмении. - М.-Л., 1932.
3. Матниёзов М., Сотликов Л. Жахон тарихи ва маданиятида Хоразм. - Ургенч: Хоразм, 1988.
4. Сазонова М.А. К этнографии узбеков Южного Хорезма // Труды Хорезмской экспедиции. - М., 1952.
5. Вамбери А. Хива и Бухара // Туркестанский сборник. Т.
6. Йулдошев М. Хива хонлигида феодал ер эгалиги ва давлаттузулишн .
7. УзР МДА, И-125-ф, 1- руйхат, 599-хужжат, 1-варак.
8. Йулдошев М. Хива давлат хужжатлари .
9. Эрназаров Ф. XIX а. охири XX а. бошларида Хива хонлигидаги маданий...
10. Худойберганов К. Ёзувларга яширирган тарих. - Хива, 1996.

